

2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejoychi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra respublikamizda 230,9 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (350,7 ming birlik) sonidagi ulushi 65,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 17,0 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 171 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-aprel holatiga ularning ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning
umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotganlarning ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (36,2 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-aprel holatida xizmatlar sohasida 197,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 32,6 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,0 %, tashish va saqlash - 6,4 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlarda - 45,6 % korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-aprel holatiga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 33,6 mingtaga ko'paydi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes sub'ektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 30,3 mingtaga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etilib, 29,9 % ni tashkil etdi. Ularning soni 19,2 mingtaga ko'paydi. 2019-yil yanvar-mart oylarida ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 13,6 mingtaga yetdi, o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 10,5 mingtaga oshdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 21,6 % ga oshganligi qayd etilib, 3,9 mingtaga etdi.

2018-yil yanvar-mart oylari nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ko'payishi, ming birlik




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7619,8 mlrd. so'mga oshib, 40168,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari 30,0 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan ularning hajmi 2132,1 mlrd. so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	40168,7	111,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2215,7	99,3
Moliyaviy xizmatlar	6759,4	150,7
Transport xizmatlari	12041,2	103,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5330,7	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1140,1	103,6
Savdo xizmatlari	10258,2	104,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1233,2	102,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1600,3	123,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	563,0	116,0
Ijara xizmatlari	821,4	102,2
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	671,9	102,9
Shaxsiy xizmatlar	1008,9	103,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	644,0	125,1
Boshqa xizmatlar	1211,4	102,5

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 150,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (125,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (123,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (116,0 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 30,3 % ni, ta'lim sohasida – 9,3 % ni, sog'liqni saqlash sohasida - 10,9 % ni tashkil etgan.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiy hajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

Avtomobil transporti boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 44,3 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



2019-yil yanvar-mart oylarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining ulushi 24,2 % ni tashkil etdi.


Transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 14,0 % ni egallaydi. Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 9,8 % ni tashkil etdi.

Yordamchi transport faoliyatining transport xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 7,7 % ga yetdi.

Ma'lumot uchun: Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha 167 dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston 117-o'rinni egalladi.

Logistika mamlakat ichidagi va tashqarisida tovarlarning jismoniy harakatlanishini qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatish tarmog'ini o'z ichiga oladi. Logistika samaradorligi indeksi (LPI) tovarlarni chegaralar bo'ylab qanday samarali harakatlanishi nuqtai nazarida davlatlarni baholaydi.

Logistika samaradorligi indeksining (LPI) xalqaro taqqoslanishi



Ushbu reytingda O'zbekistonning infratuzilmasini rivojlantirish darajasi 2,44 tani tashkil etdi, bu esa bizning mamlakatimizga 98-o'rinni egallash imkonini berdi. O'z vaqtida etkazib berish muddatiga rioya etish darajasi 3,01 (101-o'rin), shuningdek, logistika sifati va omilkorligi 2,49 (109-o'rin) deb baholandi.


[\(https://lpi.worldbank.org/\)](https://lpi.worldbank.org/)

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 10258,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 25,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 1487,3 mlrd. so'mga oshdi.


Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)




Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 68,3 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 24,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari




Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (3280,9 mlrd. so'm), Toshkent (938,4 mlrd. so'm), Samarqand (802,0 mlrd. so'm) Farg'ona (800,0 mlrd. so'm), va Andijon (689,1 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu hududdagi savdo xizmatlari hajmi 172,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 6759,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 150,7 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %



2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (194,4 %), Jizzax (187,6 %), Namangan (184,7 %), viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (174,0 %) kuzatilmoqda.

Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (140,5 %) va Toshkent viloyatida (147,2 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida umumiy xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning eng katta ulushi Toshkent shahrida - 28,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, umumiy xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar ulushining oshishi Sirdaryo (21,5 %), Jizzax (19,7 %), Navoiy (17,6 %), Andijon (16,9 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (16,7 %) qayd etildi.

Eng past ko'rsatkich Samarqand (12,0%), Buxoro (12,6%) va Farg'ona (12,7%) viloyatlarida kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 91,3 % ni tashkil etdi.

Respublikaning moliya-kredit tizimida innovatsion IT-texnologiyalarni joriy etish ushbu sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3945-sonli qaroriga binoan Milliy banklararo protsessing markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. "Xumo" deb nomlangan yangi tizim tijorat banklarining o'zlari to'lovlarni tashkil qilishda ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Unda tijorat banklari mijozlarga xolislik dasturlari, bonuslar, overdraft-kreditlari va boshqa zamonaviy mahsulotlarni taklif qilgan holda ular bilan yanada faolroq ishlaydi. Shunday qilib, banklar o'rtasida raqobat kuchayadi.

Yangi bank kartalari ikki rejimda ishlaydi: kontaktli (kartani terminalga kiritib, kodni terish) va kontaktsiz (kartani aktivlashtirish uchun uni terminalga yaqinlashtirish kifoya). Shu bilan birga, barcha mijoz ma'lumotlarining xavfsizligi va PIN-kod so'ramasdan tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati ta'minlanadi.

[\(http://infocom.uz/\)](http://infocom.uz/)

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1600,3 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 23,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Xizmatlar hajmi
1600,3 mlrd.so'm



O'sish sur'ati
123,2 %

Hudular orasida Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 42,7 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Toshkent shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 683,2 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Buxoro viloyatida - 168,4 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (154,6 %), Sirdaryo (136,0 %), Jizzax (132,7 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (126,1 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida
ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**

O'zbekiston Respublikasi - 123,2 %	
 Eng yuqori o'sish sur'ati	 Eng past o'sish sur'ati
Buxoro viloyati - 168,4 %	Namangan viloyati - 119,6 %
Xorazm viloyati - 154,6 %	Farg'ona viloyati - 119,5 %
Sirdaryo viloyati - 136,0 %	Samarqand viloyati - 119,3 %
Jizzax viloyati - 132,7 %	Navoiy viloyati - 119,2 %
<u>Qoraqalpog'iston Respublikasi -</u> 126,1 %	Toshkent viloyati - 117,4 %
<u>Qashqadaryo viloyati -</u> 121,9 %	<u>Andijon viloyati -</u> 110,5 %
Toshkent sh.- 120,8 %	Surxondaryo viloyati - 101,5 %

Eng past o'sish sur'ati Surxondaryo viloyatida – 101,5 % qayd etildi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda "Kundalik.uz" elektron tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarni darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish, shuningdek, ta'lim boshqaruv organlari va muassasalarga statistik hisobotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, tizim ta'lim muassasalari va ta'lim muassasalarini boshqaruv organlariga statistik hisobotlarni shakllantirish vositasidir.

Shu bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishning axborot tizimi (EMIS) joriy etildi va maktablar, o'qituvchilar va xodimlar, shuningdek o'quvchilar va ota-onalarning yagona ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bundan tashqari, o'quvchilarni qabul qilish, bir maktabdan boshqasiga ko'chirish va boshqa elektron xizmatlar ko'rsatish uchun elektron tizim ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, o'quvchilarni identifikatsiyalash (NFS, ID-karta) zamonaviy tizimlarini joriy etish va ularni boshqa tizimlar (sogliqni saqlash, huquq-tartibot va hokazo.) bilan integratsiya qilish tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Ushbu tizim, zarur hollarda, o'quvchiga qiyinchiliksiz ota-onani yoki tegishli xizmat vakillarini yordamga chaqirish imkonini beradi.

[\(https://kundalik.com/\)](https://kundalik.com/)

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 3,6 % ga o'sdi, hajmi esa 169,8 mlrd. so'mga oshib, 1140,1 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 82,3 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Toshkent shahrida 485,0 mlrd. so'm qayd etilib, 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 72,3 mlrd. so'mga oshganligi kuzatildi.

Eng kichik hajm esa Sirdaryo viloyatida – 13,3 mlrd. so'm qayd etildi.


2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda muayyan natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 563,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi eng kichik (1,5 %) bo'lishiga qaramasdan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 20,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %




2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	40168,7	111,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1226,3	116,3
viloyatlar:		
Andijon	2091,1	111,1
Buxoro	1724,7	112,0
Jizzax	849,6	116,8
Qashqadaryo	1822,3	107,9
Navoiy	1009,0	110,3
Namangan	1627,1	112,5
Samarqand	2623,8	107,7
Surxondaryo	1482,4	111,9
Sirdaryo	543,2	118,5
Toshkent	2903,4	108,7
Farg'ona	2444,5	110,8
Xorazm	1197,5	112,4
Toshkent shahri	12989,9	113,7

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (12989,9 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (118,5 %), Jizzax (116,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (116,3 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (107,7 %), Qashqadaryo (107,9 %) va Toshkent (108,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Toshkent shahri (32,3 %), Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,1 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlari egallaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,5 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,1 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1205,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,0 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 5162,1 ming so'mdan Qashqadaryo viloyatida 566,0 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.


2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm



Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Sirdaryo (16,5 %), Jizzax (14,4%), Xorazm (10,5 %), Namangan (10,3 %), Buxoro (10,3 %), viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (14,6 %) va Toshkent shahrida (11,6 %) kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 210,6 ming so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining oshishi





Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Samarqand (105,4 %) va Qashqadaryo (105,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59

71-230-80-60